TOŞKENT ARXITEKTURA-QURILIŞ UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

TOŞKENT ARXITEKTURA-QURILIŞ UNIVERSITETI

ABLAYEVA VALENTINA BORISOVNA

YAŞIL IQTISODIYOT ŞAROITIDA QURILIŞ TAŞKILOTLARINING KORPORATIV BOŞQARUVINI TAKOMILLAŞTIRIŞ

08.00.13 - Menejment

iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun yozilgan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toşkent - 2026-yil

UDK: 338.24:658.114.45:69:502

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Ablayeva Valentina Borisovna
Yaşil iqtisodiyot şaroitida quriliş taşkilotlarining korporativ boşqaruvini takomillaştiriş…….....3

Аблаева Валентина Борисовна
Совершенствование корпоративного управления строительных организаций в условиях зеленой экономики…….....25

Ablaeva Valentina Borisovna
Improving corporate governance of construction organizations in the context of a green economy……..... 47

Список опубликованных работ
E'lon qilingan işlar röyxati
List of publişed works …….....52

TOŞKENT ARXITEKTURA-QURILIŞ UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

TOŞKENT ARXITEKTURA-QURILIŞ UNIVERSITETI

ABLAYEVA VALENTINA BORISOVNA

YAŞIL IQTISODIYOT ŞAROITIDA QURILIŞ TAŞKILOTLARINING KORPORATIV BOŞQARUVINI TAKOMILLAŞTIRIŞ

08.00.13 - Menejment

iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun yozilgan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toşkent - 2026

Iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № 2026.4.PhD/Iqt70505 raqam bilan röyxatga olingan.

Dissertatsiya Toşkent arxitektura-quriliş universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uç tilda (özbek, rus, ingliz (rezyume)) Toşkent arxitektu universiteti veb-sahifasida (www.dba.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.zi joylaştirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Taşmuxamedova Karima Samatovna** iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Kaxramonov Xurşidjon Şuhrat öğli** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsen
	Kasimova Fotima Tulkunovna iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yetakçi taşkilot:	**Toşkent töqimaçilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toşkent arxitektura-quriliş universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvçi PhD.03/2026.09.01.I.04.M raqamli Ilmiy kengaşning 2026-yil "01" dekabr soat 14:00 dagi majlisida bölib ötadi. Manzil: 100194, Toşkent şahri, Yangişahar köçasi, 9A-uy. Тел.: (99855) 508-02-95; e-mail: devon@taqu.uz.

Dissertatsiya bilan Toşkent arxitektura-quriliş universitetining Axborot-resurs markazida tanişiş mumkin (239 raqami bilan röyxatga olingan). № Manzil: 100194, Toşkent şahri, Yangişahar köçasi, 9A-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" noyabr dagi № 22 raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Ismailov
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.Dj. Metyakubov
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

N.A. Xadjayeva
Ilmiy darajalar beruvçi Ilmiy kengaş qoşidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRIŞ

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Korporativ boşqaruv menejerlar tomonidan suiiste'molçiliklarni kamaytiriş vositasidir. Biroq, korporativ boşqaruv institutlarining mavjudligi insofsiz amaliyotlar va korporativ inqirozlarning yöqligini kafolatlamaydi. Aynan şu sababli korporativ boşqaruv mexanizmlari doimiy ravişda takomillaştirişni talab etadi. Iqtisodiy va institutsional noaniqlik yuqori bölgan rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ boşqaruv nomukammal muhitning kamçiliklarini qisman qoplaşga qodir[1]. Bundan taşqari, yaxşi korporativ boşqaruv amaliyoti barqaror iqtisodiy ösişni rağbatlantiradi, qulay işbilarmonlik muhitini şakllantiradi[2], axborot nomutanosibligini kamaytiriş orqali biznes samaradorligini va investorlar işonçini oşiradi[3]. Natijada mamlakatga investitsiyalar kirib keladi. Taşkilotning investitsiyalarni jalb qiliş qobiliyati, odatda, uning xöjalik faoliyatini moliyalaştiriş qiymatini pasaytiradi[4] va şu bilan birga öz biznesining qiymatini oşiriş imkoniyatini yaratadi[5]. Şu sababli yirik transmilliy kompaniyalar korporativ boşqaruv tizimini rivojlantirişga katta e'tibor qaratmoqdalar.

Çina State Construction Engineering Corporation (CSCEC), Vinci, Beçtel va boşqa köplab biznes gigantlari ulkan moliyaviy oqimlarni boşqaradi; ularning biznes hajmi alohida davlatlar iqtisodiyoti kölami bilan taqqoslanadi. Masalan, "CSCEC"ning 2025-yildagi yillik daromadi taxminan 290 milliard AQŞ dollarini taşkil etdi[6], bu Belgiya va Şvetsiyaning yalpi içki mahsuloti bilan taqqoslanadi. Bunday misollar juda köp. Tarmoqdan qat'i nazar, yirik biznesga iqtisodiy faollikning salmoqli uluşi töğri keladi. Transmilliy kompaniyalar millionlab işçilarni yollaydi va butun dunyo böylab tarqalgan ön minglab yetkazib beruvçilardan materiallarni sotib oladi. Har qanday jiddiy korporativ janjal, ayniqsa, bunday kompaniyalarning moliyaviy noçorligi jahon moliya bozorlari va umuman iqtisodiyotga salbiy ta'sir körsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, şu jumladan, Özbekiston Respublikasida, aksiyadorlarni himoya qiliş va sud tizimining samaradorligi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ança zaif, korporativ boşqaruv köpinça investorlar uçun öz sarmoyalarini saqlaşning yagona kafolatiga aylanadi. Şu bois Özbekistonda mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini oşiriş, qonun ustuvorligini mustahkamlaş, mulk huquqini himoya qiliş va sudlar mustaqilligini ta'minlaşga qaratilgan islohotlar izçil amalga oşirilmoqda. Alohida quriliş korxona kesimida korporativ boşqaruv töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimini va xorijiy mulk

[1]Klapper, L. F., & Love, I. (2004). Corporate governance, investor protection, and performance in emerging markets. Journal of Corporate Finance, 10(5), 703–728.

[2]Batra, R., & Kaur, G. (2025). Are emerging economies adopting robust corporate governance practices? Empirical insights from Indian banks. International Journal of Banking, Risk and Insurance, 13(3).

[3]Younas, A., Veerasamy, R., Wahaibi, M. A., Subramanian, K. P., & Elzahar, H. (2025). The role of corporate governance mechanisms in the emerging economies. Edelweiss Applied Science and Technology, 9(9), 1462–1470.

[4]Claessens, S., & Yurtoglu, B. B. (2013). Corporate governance in emerging markets: A survey. Emerging Markets Review, 15, 1–33.

[5]Arif, U., Ahmad, M. B., & Khawaja, A. (2026). Role of corporate governance in thriving green innovation practices: A case of emerging economy. PLOS ONE, 21(2), e0342897

[6]China State Construction Engineering Corporation Limited. 中国建筑股份有限公司2025年年度报告, 2025.

uluşini 2,8 foizga oşirişga qodir bölgan barqaror raqobat ustunligiga aylanişi, şuningdek, mahalliy quriliş biznesning global ta’minot zanjiriga integratsiyalaşuviga yordam beriş mumkin[7]. Xalqaro bozorga çiqiş, öz navbatida, ekologik, ijtimoiy va boşqaruv tamoyillarini (bundan keyin ESG tamoyillari deb yuritiladi) joriy etişni taqozo etadi. Biroq, korporativ boşqaruvga ESG integratsiyasi tavakkalçilikni boşqariş nuqtayi nazaridan ham muhimdir, çunki bu kompaniyaga keng kölamli nomoliyaviy xatarlarni aniqlaş va hisobga oliş imkonini beradi. ESG strategiyasining mavjudligi korxonalarning özidagi mavjud resurslardan yanada oqilona foydalanişga va ulardan yuqori iqtisodiy samara olişga ötişiga yordam beradi. 2026-yil may oyida davlat korxonalarining operatsion faoliyatiga ESG tamoyillarini bosqiçma-bosqiç joriy etiş Vazirlar Mahkamasining №221 "Barqaror rivojlaniş hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boşqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etiş çora-tadbirlari töğrisida"gi qarorida me’yoriy jihatdan mustahkamlandi[8]. 2026-yil 1-iyuldan boşlab qaror kuçga kirdi va ESG tamoyillari tavsiyalar darajasidan davlat tomonidan tartibga soliş sohasiga ötdi.

Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi Özbekiston Respublikasida amalga oşirilayotgan islohotlarga mos keladi, jumladan, Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Işbilarmonlik muhitini yaxşilaş va xususiy sektorni rivojlantiriş orqali barqaror iqtisodiy ösiş uçun şart-şaroitlar yaratiş böyiça navbatdagi islohotlar töğrisida"gi Farmoni[9]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgaça möljallangan ustuvor yönalişlari doirasida islohotlarni izçil davom ettiriş va yangi bosqiçga olib çiqişning qöşimça çora-tadbirlari tö‘ğrisida»[10]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son "Iqtisodiyotda davlat iştirokini qisqartiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi qarori[11]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son "Davlat iştirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qiliş va xususiylaştiriş jarayonlarini jadallaştiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi qarori»[12]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-son "Quriliş-montaj işlarini amalga oşiriş sifatini tubdan oşiriş va qurilişda nazorat tizimini takomillaştiriş çora-

[7]Bhatta, B., Marshall, A., Neupane, S., & Thapa, C. (2022). Foreign ownership and the enforcement of corporate governance reforms. Review of Quantitative Finance and Accounting, 58, 541–580.

[8]Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 мая 2026 г. № 221 «О мерах по внедрению принципов устойчивого развития и экологического, социального и корпоративного управления (ESG)»//Национальная база данных законодательства Lexuz. – URL: https://lex.uz/ru/docs/8181642.

[9]Указ Президента Республики Узбекистан от 8 апреля 2022 г. № УП-101 «Об очередных реформах по созданию условий для устойчивого экономического роста путем улучшения деловой среды и развития частного сектора». – URL: https://lex.uz/docs/5951101.

[10]Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года»

[11]Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 апреля 2024 г. № ПП-162 «О дополнительных мерах по сокращению участия государства в экономике». – URL: https://lex.uz/docs/6899588

[12]Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 апреля 2024 г. № ПП-163 «О мерах по трансформации и ускорению процессов приватизации крупных предприятий с государственным участием». – URL: https://lex.uz/docs/6899590.

tadbirlari tögrisida"gi qarori»[13]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi "Quriliş loyihalarini amalga oşirişda nazorat mexanizmlarini takomillaştiriş, jarayonning oçiqligi va şaffofligini yanada oşiriş çora-tadbirlari tögrisida"gi PQ-425-son qarori[14] va boşqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda körsatilgan vazifalarni bajarişga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanişining ustuvor yönalişlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Özbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanişining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantiriş, innovatsion iqtisodiyotni şakllantiriş" ustuvor yönalişiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning örganilganlik darajasi. Korporativ boşqaruvning nazariy asoslari M. Jensen va U. Mekling (agentlik yondaşuvi), E. Frimen (steykxolderlik konsepsiyasi), D. Nort (institutsional yondaşuv), B. Triker (korporativ boşqaruvning menejmentdan farqi) kabi xorijlik tadqiqotçilar tomonidan yaratilgan. Barqaror rivojlaniş va ESG tamoyillarini korporativ boşqaruv tizimiga integratsiya qiliş masalalari O. Xart, L. Zingales, R. J. Ekkls, S. Klimenko, A. Gatterman va boşqalarning işlarida keng tadqiq etilgan. Korporativ boşqaruvning tarmoq xususiyatlari P. Teyt, M. Luzmor, Ç. Duan, S. Xuan, S. Sdan va boşqalarning asarlarida oçib berilgan[15].

MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlari, asosan, mulkning yuqori darajada konsentratsiyalaşuvi, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat uluşining kattaligi, korporativ institutlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, fond bozorining çeklangan rivojlanişi va ma'lumotlarni oşkor qiliş darajasining pastligi bilan tavsiflanadigan ötiş iqtisodiyoti şaroitida korporativ boşqaruv masalalariga bağişlangan. A.Radigin, A.Entov, R.Kapelyuşnikov, I.Z.Toguzova va F.S.Aguzarova, S.A.Orexov, S.N.Buxansev, K.K.Turbina, I.Yu.Yurgens, N.N.Krupina, L.N.Levanova, A.V.Vavilina, V.R.Vesnin, V.V.Kafidov, A.K.Isukul va boşqalarning işlari katta qiziqiş uyğotadi[16].

Korporativ boşqaruv sohasidagi mahalliy tadqiqotçilar boşqaruv tizimining huquqiy asoslari va uni Özbekiston şaroitiga moslaştirişga köproq e'tibor

---

[13]Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 февраля 2020 г. № ПП-4586 «О мерах по коренному повышению качества производства строительно-монтажных работ и совершенствованию системы контроля в строительстве». – URL: https://lex.uz/docs/4726263.

[14]Постановление Президента Республики Узбекистан от 17 ноября 2022 г. № ПП-425 «О мерах по совершенствованию механизмов контроля при реализации строительных проектов, дальнейшему повышению открытости и прозрачности процесса». – URL: https://lex.uz/docs/6289985.

[15]Jensen M., Meckling W. (1976). Theory of the firm: managerial behavior, agency costs and ownership structure // Journal of Financial Economics. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. -Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - 152 p.; Eccles R. G., Klimenko S. (2019). The investor revolution // Harvard Business Review.; Tricker B. Corporate.; Freeman R. E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. -Cambridge: Cambridge University Press, 2010.; Gutterman A. S. Sustainable enterprise fieldbook. - New York: Business Expert Press, 2020.; Hart O., Zingales L. (2022). Companies should maximize shareholder welfare // Journal of Law, Finance, and Accounting.; Duan Z., Huang Q., Zhang Q. Life cycle assessment of sustainable construction // Building and Environment. - 2022.-Vol. 221.; Tate P., Loosemore M. (2011) Corporate governance of Australian construction companies // Engineering, Construction and Architectural Management. - 18(4). - p. 444–461.

[16]Турбина К. Е., Юргенс И. Ю. (ред.). ESG-трансформация как вектор устойчивого развития: в 3 т. Т. 2. - М.: Аспект Пресс, 2022.- 650 с.; Крупина Н. Н. Корпоративное управление: учебное пособие. - СПб.: СПбГАУ, 2024. - 163 с. - ISBN 978-5-85983-453-2.; Леванова Л. Н., Вавилина А. В. Корпоративное управление: учебное пособие. - М.: КноРус, 2023. - 532 с.; Рассказова А. Н., Рассказов С. В., Дерюгин П. П. Корпоративное управление: учебник для вузов. - М.: ИНФРА-М, 2023.; Тогузова И. З., Агузарова Ф. С. Оценка эффективности корпоративного управления компаний с государственным участием: монография. - М.: Прометей, 2022.-200 с.

qaratmoqdalar. Bu borada Z.A. Aşurov, Ş.S. Muxamadjanov, A.A. Muxamadjanov, N. Akramova, F.R. Qodirov, I.S. Oçilov, B.K. Pölatov, N.A. Abdullayeva, B. Örinov, U. Kenjayeva, R.X. Toşmatov, D.R. Tillaboyev, R.I. Qayumov, N.X. Eşboyeva va boşqa olimlar salmoqli hissa qöşganlar[17].

Korporativ boşqaruv sohasida sezilarli darajada tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, hali ham yetarliça örganilmagan bir qator masalalar mavjud. Özbekiston Respublikasi quriliş tarmoğida korporativ boşqaruvning öziga xos xususiyatlarini oçib beriş, uning quriliş korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholaş, iqtisodiyotda davlatning yuqori rolini hisobga olgan holda boşqaruv tizimini moslaştiriş, Özbekiston Respublikasining Korporativ boşqaruv kodeksi (2015)[18], Özbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qiliş töğrisida"gi ÖRQ-370-sonli Qonuni (yangi tahriri)[19], IHTTning korporativ boşqaruv tamoyillari (2023)[20] asosida korporativ boşqaruvni baholaş vositasini işlab çiqişning obyektiv zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot işlari rejalari bilan boğliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toşkent arxitektura-quriliş universitetining ilmiy-tadqiqot işlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yaşil iqtisodiyot şaroitida Özbekiston Respublikasi quriliş korxonalarining korporativ boşqaruvini takomillaştiriş böyiça taklif va tavsiyalar işlab çiqişdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

korporativ boşqaruvning nazariy-metodologik asoslarini oçib beriş va korporativ boşqaruv tizimi konsepsiyalarining evolyutsiyasini umumlaştiriş;

quriliş taşkilotlarida korporativ boşqaruvni rivojlantirişga ta'sir etuvçi tarmoq, boşqaruv va institutsional omillarni aniqlaş;

quriliş taşkilotlarida korporativ boşqaruv tizimlarini loyihalaştiriş böyiça xorijiy tajribani örganiş;

Özbekiston Respublikasi quriliş sektorida korporativ boşqaruvning joriy holatini tahlil qiliş;

yaşil iqtisodiyot şaroitida quriliş sohasida korporativ boşqaruvni takomillaştirişning strategik yönalişlarini işlab çiqiş;

---

[17]Ашуров З. А. Современное корпоративное управление (зарубежный опыт): учебное пособие.−Ташкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2021.−224 с.; Abduraupov R., Mahkamov B. (2021). Corporate governance scorecard for Uzbek joint-stock companies // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. −№ 5.− c.122-132; Каюмов Р. И. (2023). Оценка современного состояния системы корпоративного управления // International Journal of Humanities and Natural Sciences. − №. 4(2).; Мухамаджанов Ш. С. (2021). Корпоративное управление и его развитие в Узбекистане // Экономика Центральной Азии. − 5(2), с. 207–224.; Очилов И. С., Пўлотов Б. Қ., Абдуллаева Н. А. (2017). Ўзбекистон иқтисодиётида корпоратив бошқарувнинг айрим масалалари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. − № 1, с. 129–135.; Urinov B., Kenjaeva U. (2023). Advanced practices and models of corporate governance // Science and Innovation. − 2(A1), с. 5–12.

[18]Кодекс корпоративного управления: утверждён протоколом заседания Комиссии по повышению эффективности деятельности акционерных обществ и совершенствованию системы корпоративного управления от 31 декабря 2015 г. № 9.

[19]Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» от 26 апреля 1996 г. № 223-I (в новой редакции Закона от 6 мая 2014 г. № ЗРУ-370).

[20]OECD. (2023). G20/OECD principles of corporate governance 2023. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/ed750b30-en.

korporativ boşqaruv sifatining quriliş korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sirini baholaş.

Tadqiqotning obyekti sifatida Özbekiston Respublikasi quriliş taşkilotlari, jumladan, "Trest-12" AJning yaşil iqtisodiyot şaroitida korporativ boşqaruv tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini quriliş korxonalari korporativ boşqaruvini rivojlantiriş va takomillaştiriş bilan boğliq taşkiliy-iqtisodiy yondaşuvlar, boşqaruv omillari va yeçimlari taşkil etadi.

Tadqiqot usullari tavsifiy, tahliliy va statistik usullar, vertikal va gorizontal tahlil, sotsiologik sörovnoma, PESTLE, SNW, SWOT va TOWS tahlillari, korrelyatsion tahlilni öz içiga olgan ekonometrik modellaştiriş, çiziqli (MNK) va panel (tasodifiy ta’sirli) regressiya, ARIMA va ARMAX modellari, asosiy komponentlar tahlili (PCA) ni öz içiga oladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tavakkalçiliklarni boşqariş siyosati, tavakkalçilik reyestri, tavakkalçilik iştahasini aniqlaş usuli, qömitalar va tavakkalçilik egalari örtasida mas’uliyatni taqsimlaş, öziga xos va qoldiq tavakkalçiliklarni baholaşning avtomatlaştirilgan matritsalari, tavakkalçilik hisoboti şakllari, tavakkalçilik madaniyatining yetukligini baholaş kabilarni öz içiga olgan, tavakkalçilik va ESG qömitasiga biriktirilgan tavakkalçiliklarni boşqariş tizimi işlab çiqildi;

korporativ boşqaruv sifatini baholaş uçun körsatkiçlarning muvozanatli tizimi taklif etilgan bölib, uning asosida Özbekiston quriliş taşkilotlarining moliyaviy barqarorligiga korporativ boşqaruvning ta’sirini ikki darajada - tarmoq va alohida korxona ("Trest-12" AJ) darajasida ölçaş imkonini beruvçi ekonometrik model işlab çiqilgan. Korporativ boşqaruv sifatining 1 birlikka oşişi moliyaviy barqarorlikning 0,227 birlikka oşişiga olib kelişi aniqlandi;

moliyaviy xatarlarni öz vaqtida oldini olişga qodir bölmagan korporativ boşqaruvning muammoli mexanizmlarini aniqlaş uçun mualliflik korporativ boşqaruv ($0.132<CGI<0.721$) va moliyaviy barqarorlik ($0.170<FSI<0.286$) indekslaridan foydalangan holda quriliş korxonalarini strategik joylaştirişning 2x2 formatidagi matritsasi taklif etildi;

Korporativ boşqaruv sifatining har yili 3%ga mötadil ösişini hisobga olgan holda, quriliş tarmoğining 2030-yilgaça bölgan ssenariy rivojlanişi 3 ta makroiqtisodiy körsatkiç (asosiy kapitalga investitsiyalar, quriliş işlari hajmi va qurilişning yaşirin sektori) böyiça prognoz qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korporativ boşqaruv sifati va kuzatuv kengaşi faoliyati samaradorligini baholaş uçun 4 ta özaro boğliq kompozit körsatkiçlardan iborat muvozanatli körsatkiçlar tizimi şakllantirildi: korporativ boşqaruv, risk-menejment, moliyaviy barqarorlik va ESG indekslari;

tarmoq va korxona uçun ikkita korporativ boşqaruv indeksi tuzildi. Tarmoq indeksi 42 ta körsatkiçni birlaştirgan 5 ta korporativ boşqaruv mexanizmi asosida hisoblab çiqilgan. "Trest-12" AJ korxonasi darajasida korporativ boşqaruv indeksi 65 ta savoldan iborat nazorat röyxati asosida tuzilgan;

quriliş korxonalari uçun moliyaviy barqarorlikni baholaşning soddalaştirilgan modeli taklif etilgan bölib, u tarmoq xususiyatlariga eng sezgir bölgan uçta körsatkiçdan iborat: joriy likvidlik, avtonomiya koeffitsiyenti hamda öz va qarz mablağlarining nisbati;

tarmoq tanlanmasining kvartil taqsimoti asosida moliyaviy barqarorlikning tarmoq bençmarkingi işlab çiqilgan;

kompozit ESG indeksi asosida nomoliyaviy xatarlarning diagnostik şkalasi işlab çiqilgan;

"12-Trest" AJ uçun Kuzatuv kengaşi faoliyati, strategik boşqaruv, risk-menejment tizimi, barqaror rivojlaniş va muvozanatli körsatkiçlar tizimini özida mujassam etgan riskka yönaltirilgan korporativ boşqaruvning integratsiyalaşgan modeli taklif etilgan;

kompetensiyalar matritsasi asosida kuzatuv kengaşi a'zolarini tanlaşni nazarda tutuvçi direktorlar kengaşi faoliyatini takomillaştiriş böyiça tavsiyalar şakllantirildi; Kuzatuv kengaşi a'zolarining faoliyatini har yili baholaş va ularni mukofotlaşni asosiy körsatkiçlarga erişişga boğlaş.

Tadqiqot natijalarining işonçliligi Özbekiston Respublikasi quriliş korxonalarining Yagona korporativ axborot portali va Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasining davlat platformalariga joylaştirilgan rasmiy statistik, moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarini yiğiş va tahlil qiliş bilan ta'minlanadi. Şuningdek, xulosalarning işonçliligi ekonometrik tadqiqot usullari va diagnostik testlar bilan tasdiqlangan**.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini hisobga olgan holda quriliş korxonalarini korporativ boşqarişga oid nazariy va uslubiy yondaşuvlarni töldiradi. Ilk bor korporativ boşqaruv sifati va moliyaviy barqarorlikning umumlaştirilgan körsatkiçlarini quriş orqali Özbekiston Respublikasi quriliş sektorining moliyaviy barqarorligiga korporativ boşqaruvning ta'siri baholandi. Xorijiy va mahalliy adabiyotlar, jumladan, Scopus va Web of Science naşrlari şarhi Özbekiston böyiça şunga öxşaş işlarni aniqlamadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati şundaki, biz tomonimizdan işlab çiqilgan diagnostika modellari moliyaviy inqirozlarning oldini oliş maqsadida quriliş korxonalari korporativ boşqaruv tizimining joriy holatini kompleks baholaş imkonini beradi. Işlab çiqilgan indekslar, hisob-kitoblarning avtomatik şablonlari, nazorat röyxatlari va hisobot şakllari rahbariyatga korporativ boşqaruv tizimini muntazam baholaş va uning rivojlaniş dinamikasini kuzatib boriş uçun tuşunarli vositani taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinişi. Yaşil iqtisodiyot şaroitida quriliş taşkilotlarining korporativ boşqaruvini takomillaştiriş böyiça işlab çiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

"Trest-12" AJda risklarni boşqariş siyosati, risklar reyestri, risk-appetiti va risk egalarini aniqlaş tizimi, risklarni baholaşning avtomatlaştirilgan matritsalari va risk-hisobot şakllarini öz içiga olgan rasmiylaştirilgan risklarni boşqariş tizimi işlab

çiqildi va sinovdan ötkazildi. (Özbekiston Respublikasi Quriliş va uy-joy kommunal xöjaligi vazirligining 2026-yil 24-avgustdagi ma'lumotnomasi № 34-06/11667);

korporativ boşqaruv sifatini baholaş uçun 4 ta özaro boğliq kompozit körsatkiçlardan iborat muvozanatli körsatkiçlar tizimi taklif etilgan: korporativ boşqaruv, tavakkalçilikni boşqariş, moliyaviy barqarorlik va ESG indekslari. Körsatkiçlarni hisoblaş va ularni umumlaştiriş usullari "Trest-12" AJ korxonasida sinovdan ötkazildi (Özbekiston Respublikasi Quriliş va uy-joy kommunal xöjaligi vazirligining 2026-yil 24-avgustdagi 34-06/11667-son ma'lumotnomasi);

korporativ boşqaruv indeksi böyiça aniq çegaraviy qiymatlarga ega bölgan korporativ boşqaruvni ssenariy asosida modellaştiriş vositasi işlab çiqildi (< 0.132 - pessimistik; 0.132-0.453 - bazaviy; 0,453-0,721 - optimistik) va moliyaviy barqarorlik indeksi (0,170-0,195 - pessimistik; 0.195-0.246 – bazaviy; 0.246-0.286 - optimistik). Mazkur vosita asosida keyinçalik strategik pozitsiyalaş matritsasi şakllantirildi (Özbekiston Respublikasi Quriliş va uy-joy kommunal xöjaligi vazirligining 2026-yil 24-avgustdagi 34-06/11667-son ma'lumotnomasi);

2026-2030-yillarga möljallangan quriliş sohasini rivojlaniş prognozi işlab çiqildi. Korporativ boşqaruv ta'sirini hisobga olmagan holda, 2030-yil oxiriga kelib asosiy kapitalga investitsiyalar 30,3 foizga, quriliş işlari hajmi 24,6 foizga, qurilişning yaşirin sektori 4,4 foizga ösişi prognoz qilinmoqda. Korporativ boşqaruv ta'sirini hisobga olgan holda amalga oşirilgan prognoz quriliş sohasining rivojlaniş istiqbollarini sezilarli darajada yaxşilaydi. Bunda investitsiyalar hajmi 12,4 foizga, quriliş işlari hajmi 27,2 foizga oşadi, qurilişning yaşirin sektori esa ösişdan töxtab, 31,6 foizga qisqaradi. (Özbekiston Respublikasi Quriliş va uy-joy kommunal xöjaligi vazirligining 2026-yil 24-avgustdagi 34-06/11667-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan ötkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinişi. Dissertatsiya mavzusi böyiça jami 13 ta ilmiy iş çop etilgan, şulardan, Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini çop etiş tavsiya etilgan ilmiy naşrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi xalqaro va 3 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida tezislar körinişida naşr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilişi va hajmi. Dissertatsiya kiriş, uç bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar röyxati, 54 ta rasm, 30 ta jadval va 8 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 199 betni taşkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kiriş qismida korporativ boşqaruv mavzusining dolzarbligi va zarurati oçib berilgan, işning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, muammoning xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda örganilganlik darajasi körib çiqilgan, tanlangan tadqiqot mavzusining quriliş sohasida korporativ boşqaruvni yanada takomillaştirişdagi ahamiyati körsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, ularning aprobatsiyasi töğrisidagi ma'lumotlar keltirilgan, tadqiqot natijalarining işonçliligi tasdiqlangan, şuningdek, naşr etilgan işlar va dissertatsiya tuzilişi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Yaşil iqtisodiyotni şakllantiriş şaroitida korporativ boşqaruvning nazariy-metodologik asoslari"** deb nomlangan birinçi bobi korporativ boşqaruvning nazariy asoslari, uning mazmuni, evolyutsiyasi va korxonalar hamda iqtisodiyotni rivojlantirişdagi örni, şuningdek, yaşil iqtisodiyot şaroitida korporativ boşqaruv arxitekturasini yaratiş böyiça xorijiy tajribani örganişga bağişlangan.

Korporativ boşqaruv töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy ta'sir körsatadi. Çunki samarali institutlar investorlar uçun yanada başorat qilinadigan va işonçli muhitni şakllantiradi. Xorijiy kapitalni jalb qiliş "Özbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor vazifalaridan biridir[21]. Investitsiyalar deyarli har doim işlab çiqarişning ösişi, texnologiyalar transferi, yangi iş örinlarini yaratiş va inson kapitalini rivojlantiriş demakdir, bu esa oxir-oqibat mamlakat yalpi içki mahsulotini oşiradi. Davlat va korporativ boşqaruv sifatining 1 foizga oşişi aholi jon boşiga yalpi içki mahsulotning örtaça 0,5156 foizga ösişiga olib kelişi isbotlangan[22] .

Bugungi kunda korporativ boşqaruv nafaqat agentlik muammosini hal etiş, balki barça manfaatdor tomonlarning manfaatlari muvozanatini saqlaşdir. Samarali korporativ boşqaruv korxonaning raqobatbardoş ustunligiga aylanadi, çunki u boşqaruv qarorlarini qabul qiliş sifatini oşiradi, bu esa oxir-oqibat biznesning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir körsatadi. Korporativ boşqaruv yondaşuvlarining evolyutsiyasi 1-rasmda keltirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi "Barqaror rivojlaniş hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boşqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etiş çora-tadbirlari töğrisida"gi qarori[23] qabul qilinişi bilan Özbekistonda korporativ boşqaruv tizimi moliyaviy körsatkiçlarni nazorat qiliş doirasidan çiqa boşladi. № 2026-yil 1-iyuldan (Qaror kuçga kiriş sanasi) boşlab davlat korxonalarining barqaror rivojlaniş töğrisidagi ma'lumotlarni oşkor etiş standartlarini joriy etişga bosqiçma-bosqiç ötişi nazarda tutilgan.


Biroq, korxonalarning boşqaruv tizimiga ESG tamoyillarini joriy etiş nafaqat me'yoriy talablarga rioya qiliş, balki resurslardan foydalaniş samaradorligini oşiriş uçun ham zarur bölib, buning natijasida biznesda uzoq muddatli raqobatbardoş ustunliklar şakllanadi (2-rasmga qarang). Ya'ni, ESG tamoyillarini amalga oşiriş energiya samaradorligi, çiqindilarni kamaytiriş, materiallardan qayta foydalaniş va ularning sarfini raqamli nazorat qiliş orqali xarajatlarni kamaytirişga, ekologik me'yorlar va mehnatni muhofaza qiliş talablariga rioya qiliş orqali ekologik va ijtimoiy xavflarni kamaytirişga, "yaşil" moliyalaştirişdan foydalaniş imkoniyatini kengaytirişga (rivojlangan kapital bozori mavjud bölgan taqdirda) yordam beradi.

---

[21]Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года»


[22]Bellahouel, S., & Mhammed, M. (2025). Governance, foreign direct investment, and economic growth: An institutional approach to the interaction in emerging economies. Science, Education and Innovations in the Context of Modern Problems, 8(12), 154–170. https://doi.org/10.56325/sei/8.12.13.

[23]Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 мая 2026 г. № 221 «О мерах по внедрению принципов устойчивого развития и экологического, социального и корпоративного управления (ESG)»//Национальная база данных законодательства Lex.uz.



1-rasm. Korporativ boşqaruv konsepsiyalarining evolyutsiyasi[24].

Xarajatlar, xatarlar va kapital jalb qiliş qiymatini pasaytiriş korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi hamda xarajatlar va differensiatsiya böyiça yetakçilik strategiyalarini amalga oşiriş uçun asos yaratadi. Ya'ni, ESGni joriy etiş vaqt ötişi bilan mahsulot sifatiga sarmoya kiritiş va innovatsiyalarni joriy etiş uçun resurslarni böşatiş imkonini beradi.




2-rasm. Raqobatbardoş ustunliklarni şakllantirişga ESG ta'siri[25].

Özbekistonda ESGni joriy etişning mavjud muammolarini, tarmoq xususiyatlarini va davlatning ustun rolini inobatga olgan holda, biz quriliş aksiyadorlik jamiyatlari uçun anglo-amerika, kontinental va xitoy modellari elementlarini tanlab uyğunlaştiriş asosida korporativ boşqaruv modelini işlab çiqdik, bunda ikkita majburiy qömita - (1) audit qömitasi va (2) xavf-xatarlar va ESG qömitasi tuzildi. Bunda Kuzatuv kengaşi va qömitalar tarkibi kompetensiyalar

[24]Muallif tomonidan işlab çiqilgan.
[25]Muallif tomonidan işlab çiqilgan.

matritsasi asosida belgilanişi lozim (3-rasmga qarang).

Ikki qömitani şakllantiriş imkoniyati bölişi uçun quriliş taşkilotlarida kengaşlarning tavsiya etilgan eng kam soni 6 kişidan iborat.



3-rasm. Yaşil iqtisodiyot şaroitida korporativ boşqaruvning tarmoq modeli[26].

Diversifikatsiyalangan biznesga ega yirik aksiyadorlik jamiyatlari uçun xavf-xatarlar va ESG qömitasini taşkil etiş özini oqlaydi. Qömita xavflarni aniqlaş va baholaş uslubiyotini işlab çiqiş, xavf-talabini aniqlaş, xavf egalarini belgilaş, javob çoralarini işlab çiqiş va qoldiq xavflarning belgilangan xavf-talabga muvofiqligini nazorat qiliş uçun mas'uldir.

Xavflarni boşqariş qömitalar va biznes bölinmalarining majburiy özaro hamkorligini nazarda tutadi. Bölimlar operatsion faoliyat davomida yu zaga keladigan xatarlar töğrisida ma'lumot beradi, ESG va xatarlar qömitasi esa bölimlarning iş natijalarini tekşiradi.

Risk-iştahani belgilaş risk-menejment tizimini şakllantirişda ajralmas bosqiç hisoblanadi, çunki u taşkilot qanday risklarni qabul qilişi mumkinligini va qaysilari unga yöl qöyib bölmasligini aniqlaş imkonini beradi. Buning uçun risk-iştahaning

[26]Muallif tomonidan işlab çiqilgan,

törtta darajasi (nol tolerantlik, risk-iştahaning yöqligi, çeklangan va örtaça risk-iştaha işlab çiqiladi, söngra işlab çiqilgan ESG, korporativ boşqaruv va moliyaviy barqarorlik indekslari asosida har bir bölinma uçun riskning miqdoriy çegaralari belgilanadi.

Maqbul xavf çegaralari asosida xulq-atvor standartlari va javob beriş tartiblari işlab çiqiladi, şundan söng rahbariyat yetuk xavf madaniyatining xususiyatlarini belgilaydi.

Dissertatsiyaning "Özbekiston Respublikasida korporativ boşqaruvning zamonaviy holati tahlili" deb nomlangan ikkinçi bobida Özbekiston Respublikasi quriliş korxonalarida korporativ boşqaruv holati va "Trest-12" AJ faoliyati tizimli tahlil qilingan.

1-jadval

Özbekiston YAIMda norasmiy va yaşirin iqtisodiyotning uluşi, %[27]

Yil	Butun iqtisodiyot	Ösiş sur'ati	Qurilişdagi uluşi	Ösiş sur'ati
2017	45,6	−5,59	51,6	−10,73
2018	41,6	−8,77	48,4	−6,20
2019	38,9	−6,49	45,2	−6,61
2020	37,2	−4,37	38,2	−15,49
2021	36,9	−0,81	39,7	+3,93
2022	34,6	−6,23	35,9	−9,57
2023	34,4	−0,58	36,3	−1,11
2024	34,3	−0,29	36,3	0,00
2025	26,9	−21,57	23,5	−35,26

Umuman olganda, Özbekiston quriliş sanoati jadal urbanizatsiya jarayonlari va keng kölamli uy-joy qurilişi tufayli barqaror ösişni körsatmoqda. Şu bilan birga, sohaning rivojlanişi bir qator tizimli muammolar bilan birga keladi. Bunday muammolardan biri qurilişning yaşirin iqtisodiyoti uluşi hisoblanadi (1-jadvalga qarang). Eslatib ötamiz, 2025-yil buriliş yili böldi - birinçi marta qurilişda norasmiy va yaşirin sektorning uluşi butun iqtisodiyotga nisbatan past böldi. Rasmiy sektorning ösişi, odatda, tranzaksion va ma'muriy tösiqlarni kamaytiriş orqali investitsiya faolligiga ijobiy ta'sir körsatadi. Özbekiston quriliş sohasida 2025-yil oxiriga kelib aynan şunday vaziyat yuzaga keldi (2-jadvalga qarang).

Quriliş korxonalarining xöjalik tafsilotlariga kelsak, biznesning asosiy çeklovlari aktivlar va xususiy kapitaldan foydalaniş samaradorligi, rentabellik, likvidlik va moliyaviy barqarorlik bilan boğliq.

Quriliş loyihalarini boşlaş uçun katta miqdorda dastlabki investitsiyalar talab etiladi va ularni amalga oşiriş uzoq vaqt davom etadi. Bu davrda korxona xarajatlari buyurtmaçilardan mablağlarning kelib tuşiş muddatlariga har doim ham mos kelmaydi, natijada aylanma mablağlar yetişmovçiligi yuzaga keladi, qisqa muddatli majburiyatlar ortadi va moliyaviy barqarorlik pasayadi.

[27]Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi, 2025. − URL: https://stat.uz/ru.

2-jadval

Xorijiy kapital iştirokidagi Özbekiston quriliş korxonalari[28]

Yil	Xorijiy kapital iştirokidagi korxonalar soni	Ösiş sur'ati, %	Xorijiy kapital iştirokidagi korxonalar uluşi, %	Mutlaq özgariş, %
2017	291	–	5,3	–
2018	488	67,7	6,5	+1,2
2019	804	64,8	7,7	+1,2
2020	955	18,8	8,1	+0,4
2021	1100	15,2	8,3	+0,2
2022	1270	15,5	8,0	−0,3
2023	1003	−21,0	7,1	−0,9
2024	1085	8,2	7,3	+0,2
2025	1412	30,1	7,8	+0,5

Tadqiqotning markaziy obyekti "Trest-12" AJ bölganligi sababli, quriliş tarmoğini bizni qiziqtirgan korxona körsatkiçlarini yettita eng yirik quriliş aksiyadorlik jamiyatlarining örtaça tarmoq körsatkiçlari bilan taqqoslaş orqali körib çiqiş mantiqan töğri böladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

"Trest-12" AJning 2018-2025-yillardagi tarmoq medianasiga nisbatan tutgan örni[29]

Korxona	ROE, %	ROA, %	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Muxtorlik koeffitsiyenti	Özlik / qarz mablağlari
«93-maxsus trest» AJ	0,00	0,01	3,42	0,750	3,09
«Turonelektro montaj» AJ	2,75	1,71	1,89	0,527	1,13
«Maxsuselektr tarmoqquriliş» AJ	1,55	0,70	1,35	0,482	0,93
«Minora quriş ekspeditsiyasi» AJ	3,35	2,51	1,89	0,744	2,70
«Özqişloqelektr quriliş» AJ	16,75	11,59	2,68	0,628	1,69
«Toşneftegazquriliş» AJ	6,15	1,85	1,39	0,305	0,41
«Трест-12» AJ	7,45	1,65	1,21	0,268	0,33
Tarmoq böyiça mediana	3,05	1,78	1,89	0,577	1,41

Izoh: *avval har bir korxona uçun 2018-2025-yillar uçun medianani hisoblaymiz, söngra "Trest-12" AJ bölmagan 6 ta korxonadan tarmoq tanlanmasining medianasini hisoblaymiz.*
ROA - aktivlar rentabelligi, ROE - xususiy kapital rentabelligi.


Jadvaldan körinib turibdiki, "Trest-12" AJ boşqa korxonalarga nisbatan yuqori

[28]Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.
[29]Dissertatsiya işining 2.6 va 2.7-jadvallari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab çiqilgan.


xususiy kapital qaytimiga ega (mediana darajasi böyiça ikkinçi örinda - 3,05% ga nisbatan 7,45%). Aktivlar rentabelligi böyiça korxona deyarli tarmoq darajasiga mos keladi - 1,78 ga nisbatan 1,65%. "Trest-12" Jning joriy likvidligi tarmoq medianasidan past - 1.21 ga nisbatan 1.89. Qarz mablağlariga nisbatan avtonomiya va xususiy koeffitsiyentlar haqida ham xuddi şunday deyiş mumkin.

38 ta quriliş aksiyadorlik jamiyatidan tanlab olingan korporativ boşqaruv tahlili şuni körsatdiki, aksiyadorlarning umumiy yiğilişi, kuzatuv kengaşi (keyingi örinlarda - Kuzatuv kengaşi) va aksariyat hollarda yakka boş direktor tomonidan taqdim etilgan ijro etuvçi organni öz içiga olgan ikki bosqiçli korporativ boşqaruv modeli ustunlik qiladi.

Kuzatuv kengaşining örtaça soni 5-7 kişini taşkil etadi. Aksariyat kompaniyalar axborotlarni töliq (66%) yoki qisman (24%) Yagona korporativ axborot portalida oşkor qiladi. Kompaniyalarning atigi 10 foizi ma'lumotlarni umuman oşkor qilmaydi (4 va 5-rasmlarga qarang).



4-rasm. Quriliş aksiyadorlik jamiyatlarida direktorlar kengaşi soni[30].




5-rasm. AJlar örtasida moliyaviy hisobotni oşkor etiş darajasi[31].

"Trest-12" AJning korporativ boşqaruv tizimi tört unsur – boşqaruv organlari, aksiyadorlar huquqlari, siyosat va tartib-qoidalar, korporativ munosabatlar yaxlitligi sifatida 6-rasmda keltirilgan. Tizim markazida ijro etuvçi organ faoliyatini birgalikda nazorat qiluvçi aksiyadorlar yiğilişi va Kuzatuv kengaşi turadi. Organlarning vakolatlari va ular örtasidagi özaro hamkorlik tamoyillari jamiyat ustavida belgilab qöyilgan. Nizom asosida içki qoidalar va siyosat işlab çiqilgan.

Tabiiyki, korxonaning moliyaviy barqarorligiga bir qator içki va taşqi omillar ta'sir körsatadi. Biroq, aynan korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir körsatadigan korporativ boşqaruv omillarini aniqlaş uçun SNW-, SWOT-, PESTLE-tahlillar ötkazildi; şuningdek, boşqaruv sifati koeffitsiyenti va

[30]38-AJ korporativ hisobotlarini örganiş natijalari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.
[31]Öşa joyni qarang.

Kovalyov metodikasi böyiça moliyaviy barqarorlikning integral körsatkiçi hisoblab çiqildi. Uşbu dastaklar «Trest-12» AJda korporativ boşqaruvni takomillaştirişning asosiy muammolari va yönalişlarini aniqlaş imkonini berdi.



6-rasm. "Trest-12" AJning korporativ boşqaruv tizimi[32].

SNW tahlili Kuzatuv kengaşi va ijro etuvçi organ faoliyati samaradorligini KPI asosida baholaş tizimi mavjud emasligini, Kengaş huzurida qömitalar yöqligini (2026-yil aprel holatiga köra taftiş komissiyasi tugatilgan), xatarlarni boşqariş tizimi yetarli darajada rivojlanmaganligini (xatarlarni boşqariş siyosati, xatarlar reyestri va ularni miqdoriy baholaş uslubiyoti mavjud emasligini) aniqladi.

PESTLE tahlili taşqi xatarlarning yuqori darajasini körsatdi (kassa uzilişlari, tannarxning oşişi, loyihalar rentabelligining pasayişi, tartibga soliş xatarlari va kadrlar tanqisligi), bu esa SNW tahlilining xatarlarni boşqariş tizimini rivojlantiriş zarurligi haqidagi xulosalarini tasdiqlaydi.

SWOT tahlili öz işlab çiqarişining yuqori material siğimini (işlab çiqarilayotgan mahsulot tannarxining yuqoriligi uning bozordagi raqobatbardoşligini pasaytiradi), sotiş rentabelligining pastligini, bu esa korxonaning taşqi va içki xavf-xatarlarga sezgirligini, asosiy vositalarning yuqori darajada eskirişini (deyarli 75%) va korxonaning murakkab taşkiliy tuzilişini (10 ta filial) aniqladi.

Dissertatsiyaning **"Quriliş korxonalarida korporativ boşqaruvni takomillaştirişning asosiy yönalişlari"** deb nomlangan uçinçi bobi korporativ boşqaruv strategiyasini rivojlantiriş, uni takomillaştiriş yönalişlari, korporativ boşqaruvning moliyaviy barqarorlikka ta’sirini miqdoriy baholaş va Özbekiston Respublikasi quriliş tarmoğini rivojlantiriş prognozlariga bağişlangan.

[32]"Trest-12" AJ içki hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

"Trest-12" AJda korporativ boşqaruvni takomillaştirişning asosiy yönalişlari Kuzatuv kengaşi a'zolarining malakasini oşiriş, tavakkalçilikni boşqarişni rivojlantiriş va uni korporativ boşqaruv tizimiga integratsiya qiliş, şuningdek, barqaror rivojlaniş tizimini şakllantirişga qaratilgan bölişi lozim.

Kuzatuv kengaşining samaradorligini oşiriş uç bosqiçda amalga oşiriladi: (1) kompetensiyalar matritsasi asosida direktorlar kengaşini ularning könikmalari va tajribasiga muvofiq şakllantiriş, (2) Kuzatuv kengaşi faoliyatini har yili baholaş va (3) direktorlar kengaşi mukofotlarini KPIga boğlaş.

Kuzatuv kengaşi a'zolarini xolisona baholaş uçun 4 ta KPI işlab çiqildi: korporativ boşqaruv, xatarlarni boşqariş, ESG va moliyaviy barqarorlik indekslari.

Korporativ boşqaruv indeksi tarmoq darajasida 42 ta körsatkiçni birlaştirgan 5 ta mexanizm asosida tuzilgan. CGI indeksi yuqori işonçlilikni körsatdi ($\alpha = 0,750$ va $\omega = 0,776$). Beşta blokning barçasi statistik ahamiyatga ega (CFA: $p < 0,001$; CFI=0,964, TLI=0,928, SRMR=0,0349 va $\chi 2=10,9$). "Trest-12" AJ korxonasi darajasida korporativ boşqaruvning kompozit indeksi uç balli şkala böyiça baholangan 65 ta savoldan iborat nazorat röyxati asosida hisoblab çiqilgan.

Tarmoqning özига xos xususiyatlariga eng sezgir bölgan uçta körsatkiçdan iborat moliyaviy barqarorlikning soddalaştirilgan umumlaştirilgan körsatkiçi taklif etilgan: joriy likvidlik, avtonomlik koeffitsiyenti va öz va qarz mablağlarining nisbati. Obyektivlikni oşiriş maqsadida, moliyaviy barqarorlik kompozit indeksining vaznlari asosiy komponentlar usuli (PCA) yordamida hisoblab çiqildi.

$$\mathbf{FSI = 0.764Z_1 + 0.871Z_2 + 0.843Z_3}, \quad (1)$$

bu yerda FSI - moliyaviy barqarorlik indeksi, Z1 - öz va qarz mablağlari nisbati koeffitsiyenti, Z2 - avtonomlik koeffitsiyenti, Z3 - joriy likvidlik koeffitsiyenti.

Tarmoq korporativ boşqaruvi va moliyaviy barqarorlik indekslari boşqaruv tizimining sifatini ikki darajada - tarmoq va "Trest-12" AJ korxonalari darajasida baholaş uçun qöllaniladi.

Tarmoq darajasida korporativ boşqaruv sifatining 1 foiz punktga oşişi boşqa teng şaroitlarda moliyaviy barqarorlikning 0,227 birlikka oşişiga olib kelişi aniqlandi:

